

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHI

Yusufjonov Bahrom Yo'ldoshovich¹

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro munosabatlar yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.11.2024

Revised: 26.11.2024

Accepted: 27.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

proteksionizm siyosati,
xorijiy investitsiyalar,
valyuta konvertatsiyasi,
valyuta nazorati,
inflatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiyotiga olib kelishi mumkin bo'lgan ijobiy o'zgarishlar va hozirgi kunda bu tashkilotga a'zo bo'lish uchun olib borilayotgan amaliy ishlar haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari maqolada O'zbekiston iqtisodiyotidagi proteksionizm siyosati, raqobatbardoshlik darajasi va Jahon Savdo Tashkilotining asosiy tamoyillari haqidagi fikrlar ham keltirib o'tiladi.

KIRISH. Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy yangilanishlar natijasida aholimiz hayot tarzi yaxshilanib borayotganligini ta'kidlab o'tish zarur. Iqtisodiy siyosat keng ko'lamli iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning hayotga tatbiq etilishi bilan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Xususan, sanoat sohasi ham yurtimizda mustaqillik yillarida chinakam rivojlanish bosqichiga olib kelindi. Ushbu tarmoq bugungi kunda yuqori texnologiyali sanoatga aylandi. Yurtimiz kelajagini belgilash uchun ishlab chiqilayotgan ko'pgina dasturlar va rejalarning negizida iqtisodiy maqsadlarning borligi ham iqtisodiyotimizni rivojlantirishga va Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishimizga bo'lgan ehtiyojning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ishlab chiqarish sohasida xorijiy davlatlar bilan juda katta hamkorlik rejalari amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkinki, 2022-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1920,3 mlrd. so'mlik mahsulot

ishlab chiqarildi va aholimizning ish bilan taminlanganlik darajasini yaxshilashga katta ta'sir ko'rsatdi¹⁶.

Xalqaro savdoda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan xukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. 1995-yilda 1948-1994-yillarda ish olib borgan tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (General Agreement on Tariffs and Trade — GATT) negizida tashkil qilingan BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) tizimiga kiradi. Idorasi Shveysariya Jenevada joylashgan. JST (Jahon Savdo Tashkiloti keyingi o'rinlarda qisqartma shakli ishlatiladi) jahon savdosi qoidalarini ishlab chiqish yo'li bilan davlatlar savdo siyosatiga ta'sir ko'rsatish, savdo munosabatlarini erkinlashtiradigan va qat'iy tartib-qoidaga soladigan muzokaralar uchun yig'ilishlar o'tkazish, davlatlararo savdoda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish va boshqa vazifalarni bajaradi. JSTning oliy organi — barcha a'zo mamlakatlar Vazirlar Konferensiyasi bo'lib, kamida 2 yilda bir marta o'tkaziladi. Joriy ishlarga Bosh kengash (tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash, intellektual mulk masalalari bo'yicha kengash), sekretariat, doimiy qo'mitalar rahbarlik qiladi. JST faoliyati a'zo mamlakatlarning o'zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to'siqlari va boshqa) ni qo'llash bilan himoya qilishga qaratilgan. A'zo mamlakatlar JST talablarini bajarish bilan birga tashkilotning boshqa a'zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo'llaydi, o'z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatini oladi. 133 mamlakat to'la huquqli a'zo, 30 mamlakat, shu jumladan Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston JST da kuzatuvchi maqomiga ega va 1992-1993-yillarda tashkilotga a'zo bo'lish uchun ariza bergan. 2021-yil fevral oyida nigeriyalik iqtisodchi Ngozi Okonjo-Iweala JST bosh direktori etib tayinlangan. Ngozi Okonjo-Iweala tashkilot tarixidagi ilk ayol direktordir¹⁷.

Bugungi kunda Jahon savdo tashkilotining asosiy 5 tamoyili mavjuddir.

1. Kamsitmaslik. Bu tamoyil eng maqbul millat tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi, ya'ni tashkilot a'zosi qolgan barcha a'zo davlatlarga savdo-sotiqda bir xil shart-sharoit

¹ Isanov A.P., "Transformatsiya negizida xo'jalik yuritish klasteribo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi" "Computer science and engineering technologies" International scientific and technical conference on October. 2022. – B.14-15.

¹⁷ Akhmadjonov O, Abdullayev A, Karimova Sh, Solijonova F, "Jahon Savdo Tashkiloti boshqaruv tizimi", "Scientific Progress" Volume 3, Issue 2, 2022. - B.343-347.

yaratishi kerak. Shuningdek, import qilinadigan tovarlarga mahalliy ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan bir xil munosabatda bo'lish talab etiladi.

2. O'zaro do'stlik. Bunda asosan davlatlar uchun tashqi bozorlarga kirish uchun imkoniyatlarni oshirish va o'zaro munosabatlarni yaxshilashga e'tibor qaratilishi belgilangan.

3. Yuklangan va amalga oshirsa bo'ladigan majburiyatlar. Ko'p tomonlama savdo muzokaralarida va tashkilotga qo'shilishda qabul qilingan tarif majburiyatlariga davlatlarning rioya qilishi lozimligi. Bunda a'zo davlat o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni savdo sheriklari bilan muzokaralar olib borilgandan keyingina o'zgartirishi mumkin.

4. Shaffoflik. Tashkilotga a'zo mamlakatlar o'z savdo qoidalari haqida doimiy ma'lumotlar berishi, savdoga ta'sir o'tkazadigan ma'muriy qarorlarni ko'rib chiqishga imkon beradigan muassasalarni saqlab turishlari, ma'lumot olish maqsadida boshqa a'zo davlatlar tomonidan yuborilgan so'rovlarga javob berishlari belgilangan.

5. Xavfsizlik. Muayyan sharoitlarda davlatlar savdoni cheklash imkoniyatiga ega. JST shartnomasi a'zolariga nafaqat atrof-muhitni, balki aholi salomatligi, hayvonlar va o'simliklarni himoya qilish bo'yicha majburiyatlar yuklaydi¹⁸.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni har bir murojaat etuvchi mamlakat uchun alohida o'rganib chiqiladi va a'zo bo'lish shartlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichiga va amaldagi savdo rejimiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Jarayon o'rtacha besh yil davom etishi, ammo mamlakat tashkilot talablariga to'la javob bermasa yoki siyosiy muammolar xalaqit beradigan bo'lsa, u uzoqroq muddatga cho'zilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun eng qisqa muddatli muzokaralar Qirg'iziston bilan (2 yil-u 10 oy), eng uzoq muzokaralar esa Rossiya bilan (19 yil-u 2 oy) amalga oshirilgan.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun 1994-yil 21-dekabrda ariza topshirgan va ishchi guruh tuzilgan. Ba'zi ekspertlar ta'kidlashicha, 90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston tashqi savdo siyosatida proteksionizm ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu asosan, mamlakatning asosiy eksport mahsulotlari narxi jahon bozorida pasayishi bilan izohlanadi. Hukumat esa valyuta nazorati orqali importni qisqartira

¹⁸ Jahon Savdo Tashkiloti. Url: <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/>.

boshlaydi. 1998-yilda Osiyo mamlakatlarida yuz bergan iqtisodiy inqiroz proteksionizmga bo'lgan munosabatini yanada kuchaytiradi.

2003-yilda valyuta ayirboshlash cheklovlari olib tashlanadi va savdoni erkinlashtirish tomon qadam tashlanadi. Islohotlar natijasida savdo va umuman iqtisodiyot sezilarli darajada o'sadi. Biroq 2008-yildagi jahon iqtisodiy inqirozi O'zbekistonga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shundan so'ng hukumat xorijiy valyuta ustidan qayta nazorat o'rnatadi va yana savdo proteksionizmga qaytadi. Rasmiy kurs va norasmiy bozor kursi o'rtasida katta tafovut yuzaga kela boshlaydi. Aynan cheklangan valyuta konvertatsiyasi ko'p yillar davomida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib keladi. Bojxona to'siqlari va davlatning iqtisodiyotga yuqori darajadagi aralashuvi yillar davomida saqlanib qoladi.

Tashkilotning asosiy vazifasi – erkin va shaffof savdo munosabatlarini tartibga solish va uni kengaytirish orqali a'zo mamlakatlar barqaror taraqqiyotini ta'minlash va insonlar turmushini yaxshilash hisoblanadi. Bu O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar maqsadiga to'liq mos keladi.

Tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yanada keng imkoniyatlar ochadi.

Respublikaning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish va sifatli amalga oshirishni ta'minlash maqsadida Prezidentning 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan:

- Jahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan bozorga kirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasini aniq belgilab berish hamda ikki va ko'p tomonlama muzokaralar jarayonida tashqi savdo rejimini tarif va notarif choralar orqali o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

- milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilot bitim, qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha Adliya vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tayyorlangan takliflarni ko'rib chiqish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan qarorlar qabul qilish belgilandi.

2023 yil 1-iyuldan boshlab Jahon savdo tashkiloti qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqiqlanadi¹⁹.

Jahon savdo tashkiloti faoliyati a'zo mamlakatlarning o'zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to'siqlari va b.)ni qo'llash bilan himoya qilishga qaratilgan²⁰. A'zo mamlakatlar JST talablarini bajarish bilan birga ³⁴ tashkilotning boshqa a'zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo'llaydi, o'z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatini oladi. Tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yanada keng imkoniyatlar ochadi.

Bu yo'nalishdagi keyingi ishlar bir tomondan, import qiluvchi mamlakatlarda O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, milliy tovarlar eksportining o'sishiga ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan respublikamizga faqat yuqori sifatli va xavfsiz import qilingan mahsulotlar kirib kelishi ta'minlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jahon savdo tashkilotining asosiy tamoyili – erkin, ochiq va shaffof raqobat hisoblanadi. Agar O'zbekiston tashkilotga a'zo sifatida qabul qilinsa, global savdo “o'yin qoidalari”ga amal qilgan holda, bosqichma-bosqich proteksionizmdan voz kechadi. Bu birinchi navbatda, bojxona tariflari kamayishi hisobiga iste'molchilarga arzon va sifatli tovarlar hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim qiladi. Xomashyo narxi pasayishi hisobiga mahalliy mahsulotlar narxi ham arzonlashadi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi ortadi. Logistika bilan bog'liq xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Chetdan olib kirilayotgan xomashyo narxi qancha arzon bo'lsa, mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot narxi ham shuncha past bo'ladi. Raqobatbardoshlik oshadi. Bu dastlabki davrda milliy ishlab chiqarishga salbiy ta'sir o'tkazsa-da, uzoq muddatli istiqbolda raqobat muhitini vujudga keltirishda ijobiy omil hisoblanadi. Mamlakat ichidagi monopol kompaniyalarning ichki bozordagi ustun mavqeyiga chek qo'yiladi va erkin raqobat muhiti yaratiladi. Hozirgi sharoitda O'zbekistondagi import proteksionizmi darajasi ancha baland hisoblanadi. Shuningdek, investorlarning O'zbekiston bozoriga kirishi ko'payadi. Bu esa

¹⁹ 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-sonli “O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori. Url: <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>

²⁰ Berkinov B.B., Aynaqulov M.A., “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Monografiya – Jizzax., 2004. – 114 b.

yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkoniyat taqdim qiladi. Bundan tashqari, o‘rta muddatli istiqbolida tashkilotga a‘zolik inflatsiya yaxshigina pasayishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>.
2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A., “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Monografiya – Jizzax., 2004. – 114 b.
3. Isanov A.P., “Transformatsiya negizida xo‘jalik yuritish klasteri bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi” “Computer science and engineering technologies” International scientific and technical conference on October., 2022. – B.14-15.
4. Akhmadjonov O, Abdullayev A, Karimova Sh, Solijonova F, “Jahon Savdo Tashkiloti boshqaruv tizimi”, “Scientific Progress” Volume 3, Issue 2., 2022. –B.343-347.
5. Jahon Savdo Tashkiloti. Url: <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/>.

